



YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI EMPIRIK O'RGANISH

Sherzod Axmadjonovich Usmonov

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Sh.Ahadjonova

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10450074>

ARTICLE INFO

Received: 24th December 2023

Accepted: 30th December 2023

Online: 31th December 2023

KEY WORDS

Oila, demografik, xo'jalik-maishiy, ota-onalik, intim-shaxsiy, axloqiy-psixologik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari amaliy tadqiqotlar orqali hududiy jihatidan empirik tahlili o'rganilib olingan natijalar asosida xulosa va tavsiyalar berilgan

Kirish. Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o'qish, yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzma-yuz kelganda nimalar qilish kerakligiga o'rgatiladi yoki bunga maxsus o'qitiladi. Shu bilan birga umrimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, hayotda chinakam, to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki aksincha har tomonlama ta'minlanganligimizga qaramasdan bizning baxtimizni yarimta qiladigan oilaviy hayotdir. Hozirga kelib jamiyatimizda oilaviy nizolar va ajrimlar soni har qachongidan ko'ra ko'payib borayotganligi ayni haqiqat. Statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, 2022-yilning 1-iyun holatiga FHDYO organlari tomonidan respublika bo'yicha 20 798 ta ajrim qayd etilgan. Adliya vazirligi xabariga ko'ra, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 4 700 taga ko'paygan. Buning sabablari o'rganilganida esa, asosiy omillardan biri sifatida milliy an'analarimiz, turli urf-odatlar va etnik stereotiplar kelib chiqmoqda.

Bizning fikrimizcha, oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Chunki, ko'p hollarda turmush qurgan ikki yosh o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilim, zaruriy ko'nikma va malakaga ega bo'lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-biri hamda oilaviy rollarning taqsimplanishi to'g'risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ular munosabatlarining ijobiy kechishi va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o'zbek oilsining mustahkam va baxthli etish yo'llarini aniqlash mumkin. Shunday ekan, bu mavzu eng dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda oila va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ta'sir qiluvchi etnik omillarni o'zbek olimlaridan F.A.Akramova, R.Abdullayeva, H.Abdusamatov, R.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, A.E.Kadirova, N.X.Lutfullayeva, G.Niyazmetova, Z.A.Rasulova, F.Ro'ziqulov, R.S.Samarov, U.S.Saribayeva, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, E.SH.Usmanov, M.Utepbergenov, M.X.Fayziyeva, G.B.Shoumarov, U.D.Qodirov,



G.X.Yunusova, G.T.Yadgarova va boshqalar tadqiq etishgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.N.Antonov, T.V.Andreyeva, S.I.Golod, S.Kovalev, N.V.Malyarova, K.Mixanovich, N.N. Obozov, V.Y.Semenov, V.V.Solodnikov, L.V.Tolstova, E.G.Tiyd, V.N.Ukolova, A.G.Xarchev va boshqalarning ishlarida oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari kabi muammolar ilmiy tadqiq etilgan. Xorij olimlaridan J.Lofas, L.B.Schneider, S.D.Kratochvil, G.E.Craig, M.M.Sweeney, M.Campbell, K.M.Schafer, L.Bumpass, J.Quaet, T.C.Martin, R.C.Bean, D.E.Delis, E.T.Burgess, P.D.Wollin, L.G.Terman, M.Odema, G.Roland, T.Parsons, C.Rogers va boshqalar oila va oilaviy munosabatlar, oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik, etnik omillarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin mazkur ishlarda oila qurishdagi motivlarning etnik xususiyatlari va millatning ijtimoiy psixologik ta'siri alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Materiallar va metodlar. Demografik nuqtai-nazardan olinganda, oila qurish deganda ma'lum bir kishilarning emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatdan qanchalik katta bo'lsa (uning yoshi qanchalik yuqori bo'lsa), u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarning har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20-24 yoshdagi guruh, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq, hayotiy tajribaga ega bo'ladi. Birinchi avlod vakillarida ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rtaligi yoki o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb- hunarni egallagan bo'ladilar. 25-29 yoshlarda esa, 20-24 yoshdagilarga qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar yetukligi bo'yicha yanada yuqoriroq darajaga ega bo'ladilar. Hozirgi zamon demografiyasida keng foydalaniladigan ushbu ko'rsatib o'tilgan kabi statistikalar va yosh guruhlari yoshlarning ijtimoiy yetukligining turli jihatlarini ijtimoiy psixologik tahlil qilish uchun juda noqulay hisoblanadi. Chunki hech kimga sir emaski, bugungi kunda yoshlarning kattalashuvi, voyaga yetishi juda jadal amalga oshmoqda. Shuning uchun oila qurish ostidagi motivlar nisbati ham avvalgidek ko'rinishni o'zida aks ettirmaydi. Buni amaliy tahlil qilish uchun birinchi navbatda V.Karimova muallifligida "Nikohga nisbatan individual motivatsiyani o'rganish metodikasi" dan foydalanildi. Ushbu metodika – har bir shaxsda mayjud bo'lgan oilaviy rollarga nisbatan ijobiy (salbiy) ustanonkalarni aniqlashdir. Odatda har qanday motivatsiyani tahlil qilish mushkul bo'lganligi uchun juftli taqqoslash texnikasidan foydalaniladi.

Jadval 1

"Nikohga nisbatan individual motivatsiyani o'rganish metodikasi" bo'yicha hududiy jihatidan farqlar

	Xo'jalik-maishiy		Ota-onalik		Intim-shaxsiy		Axloqiy-psixologik	
	Qishloq	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq	Shahar
O'rtacha miqdor	1,88	1,71	8,4	7,9	2,3	3,2	3,8	3,3
Dispersiya	1,89	1,56	2,74	2,35	1,4	1,5	2,1	2,9
n	34	30	34	30	34	30	34	30
t	1,99*		2,01*		3,5**		1,8	



* $p<0,05$; * $p<0,01$; * $p<0,001$

Natijalar. Jadvalda umumiy respondentlarda o'tkazilgan natijalar tahlilini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunda metodikadagi jami 4 ta shkala bo'yicha shahar va qishloq aholisida turmush qurish motivlarining amaliy o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Birinchi qatorimizda respondentlardan olingan natijalarning o'rtacha qiymati keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni tahliliga keladigan bo'lsak, xo'jalik maishiy shkala bo'yicha qishloq hududidagi turmush quruvchilar bilan shahar hududidagi turmush quruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi($p<0,05$; $t=1,99$). O'rtacha miqdordagi farq ham 0,17 ni tashkil etgan. Bundan ko'rinaridiki, qishloq hududida yashovchi aholi shaharda yashovchi aholiga nisbatan nikoh qurishda xo'jalik-maishiy motivlariga ko'proq e'tibor qaratar ekan.

Ota-onalik shkalasiga keladigan bo'lsak, bunda respondentlarimiz o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq paydo bo'lmoqda($p<0,05$; $t=2,01$). Styudent bo'yicha natija $t=2.01^*$. Bu natijadan xulosa qilishimiz mumkinki, oila qurishdagi motivlarda ota-onalikning ahamiyati qishloq hududida shahar hududidagidan ko'ra ko'proq ahamiyatli va bu natijada o'z aksini ko'rsatmoqda.

Uchinchi shkalaga keladigan bo'lsak, bunda yaxshigina farq mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, shahar aholisida intim-shaxsiy motivlar evaziga oila qurilishi yaqqol ko'rinish turibdi. Qishloq aholisida esa natijalar aksincha. Styudent mezoni bo'yicha farq $t=3.5$ ni ko'rsatmoqda($p<0,01$; $t=3,5$). Buni albatta tahlil qilish va qishloq hududidagi aholi uchun asosiy oila qurish motivlaridan biriga aylantirish kerak.

To'rtinchchi shkalada esa natijalar u qadar tafovutli emas. Deyarli farq aniqlanmagan, lekin sinchkovlik bilan qaralganda sezilmas ustunlik qishloq aholisida yuqori chiqqanligini guvohi bo'lamiz. Ya'ni axloqiy-psixologik masalaga qishloq hududida nikohlanuvchilar shahar hududidagidan ko'ra ko'proq ahamiyat qaratishadi.

Tadqiqot jarayoni, uning avvalida belgilab olingan maqsad va bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar imkon qadar amalga oshirildi. Mavzuning nazariy asosi hamda o'rganilganlik darajasi yoritilib, asosiy urg'u oila qurish motivlarining etnik xususiyatlariga qaratildi.

Tadqiqotning amaliy qismida esa aynan yuqoridagi omilni asosiy faktor sifatida tahlil qilishga harakat qilindi. Olingan natijalarning qiyosiy tahlili esa, tadqiqot boshida qo'yilgan ilmiy farazni to'laqonli oqlaganini ko'rsatib turibdi.

Xulosa va tavsiyalar. Oilal qurish motivlarida, shuningdek farovon turmush tarziga erishgan oilalarda etnik qadriyatlarning ijobiyligi - ilmiy farazimiz, farovon turmushga ega oilalarda, endi oila quruvchi yoshlarimizda esa oila haqidagi tushunchalari milliy qadriyatlarni chegarasida ekanligini guvohi bo'ldik. Shuningdek, tadqiqotning amaliy qismida shahar va qishloq aholisi bo'yicha qiyosiy tahlil olinganda, qishloq hududidagi respondentlarda etnik qadriyatlarning ahamiyati va ta'siri kuchli ekanligiga guvoh bo'ldik.

Yuqoridagi xulosalar assosida quyidagi tavsiyalardan oila institutini mustahkamlashda foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda faqat oila, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmay balki mahalla, oila bilan bog'liq barcha tuzulmalar ham o'z vazifasini to'liq bajarishini ta'minlash;



- ta'lim-tarbiya muassasalarida bolani yoshi, jinsi, etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalangan holda original darslik, o'quv qo'llanmalar, didaktik vositalar yaratish;
- oilaviy hayotga tayyorlashda hadislar, rivoyatlar, maqollar, aforizmlar, allomalar fikrlari, hayot kechinmalaridan misollar, taniqli adiblar asarlaridan, kinofilmlardan lavhalar, spektakllar ko'rish va ularni bolalar bilan tahlil qilish;
- bolalar oilada o'z ota-onalari bilan oila mavzusida suhbatlar o'tkazish.

References:

1. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.
2. Axmadjonovich, U. S., & Mirzaolim o'g'li, M. J. (2022, December). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF STUDENTS. In Conference Zone (pp. 775-780).
3. Axmadjonovich, U. S., & Mirzamirovna, M. C. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING POSITIVE ATTITUDES IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 341-344.
4. Axmadjonovich, U. S., & Ilhomjon o'g'li, N. I. (2022). THE INFLUENCE OF MASS MEDIA ON HUMAN PSYCHOLOGY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 345-348.
5. Usmonov, A. (2021). БОЛА ТАРБИЯСИДА ДОНОЛАР УГИТИ ВА^ ИКМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Boshlang'ich ta'limdi innovatsiyalar, 2(Архив№ 3).
6. Axmadjonovich, U. S., & Murodjon To'lqinjon o'g, A. (2022). PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 180-183.
7. Axmadjonovich, U. S. (2022). AN EMPIRICAL STUDY OF THE EFFECT OF MENTAL ABILITIES ON STUDENT ACHIEVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(12), 125-132.
8. Axmadjonovich, U. S. Khakimova Ugilkhon Nasimhon qizi.(2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 65-67.
9. Usmonov, S., & Tojimamatov, J. (2022). O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(7), 139-143.
10. Axmadjonovich, U. S. (2022). Empirical analysis of the impact of sociopsychological factors on mastery indicators in students. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(2), 5-11.
11. Усмонов, Ш. А. (2022). ТАЛАБАЛАРДАГИ АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ЕТАКЧИ СИГНАЛЛАР ТИЗИМИГА БОҒЛИҚЛИГИНИ ЎРГАНИЛИШИ: Усмонов Шерзод Ахмаджонович, Фарғона давлат университети, Психология кафедраси ўқитувчisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 328-333.



12. Axmadjonovich, U. S. (2022, December). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGIC FACTORS INFLUENCING STUDENTS' LEARNING ABILITY. In Conference Zone (pp. 767-774).
13. Усмонов, Ш. А., Закирова, М. С., & Нуридинов, Р. С. Ў. (2021). ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. Современное образование (Узбекистан), (9 (106)), 12-16.
14. Усмонов, Ш. А. (2021). Закирова Мухаббат Сабировна, Нуридинов Расулжон Самитжон ўғли. ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ//СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН), 9, 106.
15. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. Academic research in educational sciences, 2(5), 73-77.
16. Усмонов, Ш. А., & Закирова, М. С. (2021). Нуридинов РСЎ ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. Современное образование (Узбекистан).-2021, 9(106), 12-16.
17. Usmanov, S., & Absalomov, E. U. (2020). IMPROVEMENT OF TOLERANT CULTURE IN THE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 674-676.
18. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 177-179).
19. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 298-300).
20. Усмонов, Ш. А. (2015). Развитие толерантной культуры у учащейся молодёжи. In Актуальные аспекты современной науки (pp. 9-12).
21. Усмонов, Ш. (2023). МИЛЛАТИМИЗ ХАРАКТЕР ХУСУСИЯТИДА ТОЛЕРАНТЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ТАРКИБ ТОПИШИ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 21-24.
22. Усмонов, Ш. (2023). БОҒЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(19), 1-6.
23. Usmonov, S., & Hakimova, O. (2023). O 'SMIR QIZLAR XULQ ATVORI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 189-194.
24. Axmadjonovich, U. S. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.
25. УСМОНОВ, Ш., & ЗАКИРОВА, М. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Центр инновационных технологий", (9), 12-16.
26. Усмонов, Ш. А. (2015). Развитие толерантной культуры у учащейся молодёжи. In Актуальные аспекты современной науки (pp. 9-12).
27. Sherzod AxmadjonovichUsmonov, D.H.Meliboyev //O'SMIRLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLAR// O'ZBEKISTONDAFANLARAROINNOVATSİYALARVA İLMIYTADQIQOTLARJURNALI. 25-SON. 20.12.2023. 156-161.



28. Usmanov, S., & Abdulhamidova, F. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY IN STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATION NEEDS. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 3, Выпуск 12, сс. 415–420).